


**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag‘allikni qisqartirish
vazirining birinchi o‘rinbosari**


I. Norqulov
2022-yil “10” fevral

**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi bayoni
BAYONI**

2022-yil “10” fevral

Toshkent sh.

Raislik qildi:

I. Norqulov – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari.

Qatnashdilar:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibi a‘zolari, departament, bosh boshqarma, bo‘lim boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari hamda vazirlikning mas‘ul xodimlari.

KUN TARTIBI:

- 1. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini kelishish;**
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarida normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo‘yicha I chorakka mo‘ljallangan tadbirlar rejasini tasdiqlash.**

(Norqulov, Axmedjonova, Ochilov, Toshpo‘latov, Axmedov, Kasimov, Saipov, Xolmurodov, Djuraeva, Saparboyev, Norqulov)

ESHITILDI:

Dastlabki masala yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari I. Norqulov so‘zga chiqib, joriy yil uchun vazirlik tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va fikri hisobga olinishini alohida ta‘kidlab o‘tdi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish,

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish muhim vazifa ekanligi aytib o'tildi. Vazirlik faoliyatining ochiq va shaffofligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish hamda Vazirlik xodimlari va oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlari, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlari, shuningdek, zaxiraga olingan xodimlarning ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolari kompleks tahlil qilindi.

Yuqoridagi ko'tarilgan dolzarb mavzular va qabul qilinayotgan hujjatlar bo'yicha vazirlikning departament, mustaqil boshqarmalar va bo'linmalari tomonidan tegishli takliflar yig'ib olindi.

Kun tartibining ikkinchi asosiy masalasi bo'yicha vazirlik faoliyatiga tegishli baho berish uchun 2020-yilning 23-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tuzish to'g'risida"gi 66-son buyrug'ining 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tarkibida rahbar, rahbar o'rinbosari hamda tegishli a'zolarini kelishish masalasi muhokamaga qo'yildi.

Mazkur muhokama davomida Jamoatchilik kengashining a'zolari taklifiga muvofiq, O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi raisi NNT rahbari **Axmedjonova Adiba Komiljonovna** Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi rahbari sifatida nomzodi ko'rib chiqildi va bir ovozda a'zolar tomonidan ma'qullandi.

Mazkur muhokama so'ngida Jamoatchilik kengashi tarkibiy a'zolari taklifiga muvofiq, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi rahbari o'rinbosari lavozimiga Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari **Tursun Muhitovich Axmedov** nomzodi taklif qilinib, mazkur nomzod bir ovozda kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

Shu o'rinda Jamoatchilik kengashi a'zolari Vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha o'z fikr va tavsiyalarini, takliflarini berishdilar.

Majlis so'ngida Axmedjonova Adiba Komiljonovna so'zga chiqib, Jamoatchilik kengashi a'zolariga va ishtirokchilarga o'z minnatdorchiligini izhor qildi. Ushbu sohada o'z bilim va ko'nikmalarini amalga tatbiq qilishini aytib o'tdi.

QAROR QILINDI:

1. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarida normativ-huquqiy

va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo'yicha 2022-yil I chorakka mo'ljallangan tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. B. Saparboev Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Jamoatchilik kengashi kotibi:

- Jamoatchilik kengashi tarkibi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarida normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo'yicha 2022-yil I chorakka mo'ljallangan tadbirlar rejasi to'g'risidagi ma'lumotni Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Axborot xizmat bo'limiga taqdim qilinsin;

- Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanib, vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olish;

- kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etish;


- Jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini Jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishish;

- Jamoatchilik kengashi a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qilish;

- Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib borish va uning natijalarini Jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritish;

- Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtirish va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi.

**Jamoatchilik
kengashining kotibi**



B. Saparboev

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni
qisqartirish vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishi
bayoniga 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi
yig'ilishlarida normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarni muhokama qilish bo'yicha 2022-yil I chorak ga mo'ljallangan
TADBIRLAR REJASI**

T/ r	Loyiha nomi	Loyiha qabul qilinishi uchun asos	Muddati	Ijrosi uchun mas'ul vazirlik va idoralar	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligidan ijro uchun mas'ul shaxs
Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va fikri hisobga olinganligining tahlili					
1.	O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiya loyihasi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 13-dekabrda 02-PA 1-19848-son topshirig'ining 9-bandi	2022 yil iyungacha	Qurilish vazirligi, Transport vazirligi, Moliya vazirligi, Uy-joy komunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta ta'lim vazirligi.	R. Rustam o'g'li, U. Oktyabirov, N. Zayseva.
2.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 17-noyabrda 175-son bayonining 2-ilovasi bilan	2022-yil I chorak	1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	M. Shagzatov - Yer islohotlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi

	<p>“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan foydalanish tartiblarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror loyihasi</p>	<p>tasdiqlangan Jahon banki vitse-prezidenti Anna Byerdening 2021-yilning 14-19-may kunlaridagi tashrifi, shuningdek. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlar sarhisobi va istiqboli” mavzusidagi O‘zbekiston iqtisodiy forumi doirasidagi tashabbuslar va kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 16-bandi</p>		<p>2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi</p> <p>4. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi</p>	<p>boshlig‘i</p> <p>Y. Jurayev - Qishloq xo‘jaligida yer munosabatlarini isloh qilish bo‘limi boshlig‘i</p>
<p>3.</p>	<p>Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalaridan ruhsat etilgan foydalanish turlari klassifikatorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrda 02/1-2801, 02/2-474-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish bo‘yicha Tadbirlar rejasining 4-bandi</p>	<p>2022-yil I chorak</p>	<p>1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi</p>	<p>M. Shagzatov - Yer islohotlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i,</p> <p>I. Chuykin – Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiy lashtirish bo‘limi boshlig‘i</p>
<p>4.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021/2022 o‘quv yilida</p>	<p>Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l</p>	<p>2022-yil may</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi,</p>	<p>A. Davletyarov G‘. Asomidinov</p>

	<p>O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi</p>	<p>xaritasi” loyihasining 45-bandi belgilanishi ko‘zda tutilmoqda</p>		<p>Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi</p>	
<p>5.</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini 2022–2026-yillarda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror loyihasi</p>	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi PF-5386-sonli ““Obod qishloq” to‘g‘risida”gi va 2018 yil 27 iyundagi PF-5467-sonli ““Obod mahalla” to‘g‘risida”gi farmonlar</p>	<p>2022-yil yanvar</p>	<p>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Aloqador vazirlik va idoralar</p>	<p>Z. Urakov B. Muradov</p>

(A. Mirzayev)
(Z. Spontol)
(M. Anvarov)

(M. Anvarov)
(M. Anvarov)

(M. Anvarov)
(M. Anvarov)

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni
qisqartirish vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishi
bayoniga 1-ilova

**Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi tarkibi**

T/r	F.I.O.	Lavozimi	
		Jamoatchilik kengashida	Asosiy ish joyida
1.	Axmedjonova Adiba Komiljonovna	Jamoatchilik kengashi raisi	O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi raisi NNT
2.	Axmedov Tursun Muhitovich	Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari	Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari
3.	Ochilov Sherzod Ubaydullayevich	Jamoatchilik kengashi a'zosi	O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bo'lim boshlig'i
4.	Toshpo'latov Farhod Murodovich	Jamoatchilik kengashi a'zosi	O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi raisining o'rinbosari
5.	Yakubova Marhabad Mahmudovna	Jamoatchilik kengashi a'zosi	Iqtisodiyot vazirligining sobiq xodimi, faxriysi, nafaqaxo'r
6.	Kasimov Abdug'ani Xabirovich	Jamoatchilik kengashi a'zosi	"El E'zoz Mebel" MChJ korxonasi ta'rischisi
7.	Saipov Aziz Alisherovich	Jamoatchilik kengashi a'zosi	"Jo'rabek Laboratoriyesi" QK MChJ bo'lim boshlig'i
8.	Xolmurodov Botir Burxoniddinovich	Jamoatchilik kengashi a'zosi	Sog'liqni saqlash vazirligining Boshqarma boshlig'i
9.	Saparboyev Bekmurodbek Sherzod o'g'li	Jamoatchilik kengashi kotibi	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining bo'lim boshlig'i